International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY-IJTIMOIY AHAMIYATI VA YASHIL TARAQQIYOTGA ERISHISHDA ILM-FANNING RIVOJLANISHI



Bobanazarova Jamila Xolmuradovna
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qumitasi senatori

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va indikatorlari tahlil etilgan. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini moliyalashtirish, “yashil energetika”ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning ustuvor yo‘nalishlari va xorij tajribasi, modellari, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlarining mazmuni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Yashil iqtisodiyot, Yashil loyihalar, Yashil moliyalashtirish, Yashil energetika, “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish strategiyasi.

Kirish. O‘zbekistonning 2030 yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag‘al guruhlariga maqsadli yordam ko‘rsatish kabi yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta’siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog‘liq yangi g‘oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturiy amal hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi. Ekologik jihatdan

yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi. [1]

Adabiyotlar tahlili. Vashalova T. V. ning “Экологические основы природоползования. Устойчивое развитие” nomli qo‘llanmasida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirishni zarurligi;
- uglevodorod xom-ashyosi va uning pirovard mahsulot qiymatidagi ulushiga bog‘liqligini qisqartirish asosida iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish;
- katta multiplikativ samaraga ega bo‘lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarni yangilash imkonini beruvchi yashil innovatsiyalarni qo‘llash;
- past uglerodli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida uglevodorodga bog‘liqlikni qisqartirish.

Yuqorida qayd etilganidek, jahonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish tashabbusi 2008 yilda UNEP tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi:

- ekologiya bilan bog‘liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiga aylantirish;
- “yashil” ishchi o‘rinlarni yaratish hisobidan aholi bandligini ta’minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmidan foydalanish.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Ye.R. Lindal va J.R. Xikslar asos solishgan (D. B. Smirnov (2015)). Xiks-Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o‘zaro o‘rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi.

Iqtisodiy fanlar doktori, professor M. Pardayevning fikricha, “Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim hisoblanib, uning bosh maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgandir. (https://zarnews.uz/ ma’lumotlari)

Metodologiya. Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Mavzuni yoritishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Yashil iqtisodiyot prinsiplari asosida barqaror rivojlanishni ta’minlash to‘g’risida mamlakatimiz va chet el olimlari, tadqiqotchilari tomonidan yozilgan adabiyotlar, bundan tashqari statistik ma’lumotlar nazariy jihatdan tahlil qilindi va taqqoslandi.

Tahlil va natijalar. XX asrda dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o‘zgarib ketdi. 1900 yilda dunyo aholisi 1,6 mlrd. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yilda ushbu ko‘rsatkich 6 mlrd. kishidan oshdi, 2017 yilga kelib esa yer yuzidagi aholi soni 7,6 mlrd. kishini tashkil etmoqda. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi jahon bo‘yicha deyarli ikki marta oshib, kambag‘allik darajasi 3 martadan ko‘proqqa kamaydi. Fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta’sirida iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining keskin o‘sishi dunyo aholisi sonining jadal sur’atlarda ortishiga sabab bo‘ldi. Fantexnika yutuqlari dunyo aholisi sonining o‘sish sur’atlariga nisbatan yuqori iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini ta’minlab berdi. Jumladan, XX asr davomida dunyo aholisi 3,6 martaga o‘sgani holda, dunyo yalpi ichki mahsuloti miqdori 18 martadan ko‘proqqa ortgan. Tahlillar ko‘rsatishicha, dunyo aholisining ko‘payishi va iqtisodiy o‘sishning muntazam ravishda atrof muhitga bo‘lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So‘ngi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000 yilda 1900 yilga nisbatan) oshdi, tropik o‘rmonlarning yo‘qotilish darajasi 6 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1,5 martaga ko‘paydi.[2] Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o‘zgarishlari o‘rta muddatli istiqbolda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.


“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shu sababli, o‘tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo‘llanilayotgan rag‘batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo‘naltirilsa, iqtisodiy tizimni “yashillashtirish” jarayoni yanada faollashadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish tamoyillari mazkur iqtisodiyot qanday bo‘lishi zarurligini belgilab beradi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari “jigarrang iqtisodiyot” tamoyillariga nisbatan keng qamrovli bo‘lib, 1972 yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro va milliy amaliyotda 2012 yilda UNEP boshqaruv kengashi “Yashil iqtisodiyot” kaolitsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan:

1-rasm. “Yashil qitisodiyot” tamoyillari



Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konseptsiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Qarorda belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri “Yashil iqtisodiyot”ni qo‘llab- quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishning ustuvor sohalaridan biri “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini ta’lim va fanga integratsiya qilishga bag‘ishlangan:

- “yashil” iqtisodiyot asoslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, “sof” transportni rivojlantirish, energiya tejash va boshqa masalalarni e’tiborga olgan holda oliy va o‘rta maxsus ta’limning tegishli yo‘nalishlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning tegishli dasturlariga “yashil” iqtisodiyot asoslari bo‘yicha mavzular kiritish;

- oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar, umumiy o‘rta ta’lim uchun tegishli o‘quv adabiyotlarini (yo‘nalishlar bo‘yicha) tayyorlash yoki qayta nashr etish jarayonida ularga “yashil” iqtisodiyot asoslari bo‘yicha mavzular kiritish;

- pedagog va ilmiy xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga “yashil” iqtisodiyot asoslari, jumladan, “Yashil texnologiyalar”, “Yashil mezonlarni hisobga olgan holda ekologik me’yorlashtirish asoslari”, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari texnologiyalari”, “Energiya tejamkorligi va energiya samaradorligi muammolari” mavzularini joriy etish;

- “yashil” texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

“Yashil iqtisodiyot” sohasida turli tadqiqotlar olib borish bilan shug‘ullanuvchi xususiy kompaniyalar “yashil moliyalashtirish” tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qilishgan. Jumladan, Bloomberg New Energy Finance kompaniyasi mutaxasislari “yashil moliya” lar “yashil investitsiyalar” bilan bir qatorda qo‘llaniladi, ammo amaliyotda “yashil moliyalashtirish” investitsiyalarga nisbatan kengroq tushuncha sifatida ishlatiladi, deb hisoblashadi. Pricewaterhouse Coopers Consultants konsalting kompaniyasi mutaxassislari tomonidan berilgan ta’rif esa “yashil moliyalashtirish”ni bank sektori nuqtai nazaridan tavsiflashga asoslanadi. Ularning fikricha, bank sohasi uchun “yashil moliyalashtirish” ekologik omillarni hisobga oluvchi moliyaviy mahsulot hisoblanadi va ushbu tamoyilga kredit berish jarayonidan boshlab to kredit yopilish oralig‘idagi barcha jarayonlarda amal qilinadi. Xalqaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari esa “yashil moliyalashtirish – barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan moliyaviy qo‘yilmalar, loyihalar va investitsiyalarni ifodalovchi keng tushuncha bo‘lib, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirishni nazarda tutadi”, deb hisoblashadi. Ularning fikricha “yashil moliyalashtirish” atrof-muhitga sanoat chiqindilarini chiqarish hajmini qisqartirish, suv resurslari ifloslanishining oldini olish va bioxilma- xillikni saqlab qolishga qaratilgan loyhalarni moliyalashtirish bilan birgalikda iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish va unga moslashish jarayonlariga sarflanayotgan investitsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy adabiyotdagi ta’riflarni quyidagicha guruhlash mumkin: birinchi guruhga xos umumiy jihat shundaki, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq texnologik jarayonlar, loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishning keng qamrovli usullari “yashil” moliya sifatida talqin etiladi, ikkinchi guruh ta’riflarda esa “yashil moliya” ekologik tarkibiy elementga ega bo‘lgan moliyaviy mahsulotlar (dastaklar) va xizmatlar (kreditlar, obligatsiyalar, aktsiyalar va boshqalar) sifatida tushuntiriladi.

Demak, “yashil moliyalashtirish” atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni hisobga oluvchi va ekologik barqarorlikni ta’minlashni nazarda tutuvchi investitsiyalash va kreditlashning barcha shakllarini qamrab oladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, “yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy mexanizmlari barqaror rivojlanishni ta’minlashda o‘z o‘rniga ega. Milliy iqtisodiyotni “yashillashtirish” tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirishga, tarkibini diversifikatsiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozoridagi raqobotdoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasida ham asosiy to‘rtta ustuvor yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirishga, iqlim o‘zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning iqtisodiy mehanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish, shuningdek tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish “yashil iqtisodiyot’’ni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida energiya xavfsizligiga, bo‘sh ish o‘rinlarini yaratilishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga va mamlakat rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida quyidagi asosiy vazifalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- yashil taraqqiyotning asosiy yo’nalishlari hisoblangan ilm-fan, energetika, innovatsiya, turizm kabi sohalardagi ba’zi qonunchilik hujjatlaarida ayrim nomuvofiqliklar, bir-birini inkor etuvchi tomonlarini baartaraf etish;
- aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning turmush farovonligini oshirish uchun moddiy ne’matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda ko’paytirib borishga erishish;
- atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan innovatsion texnologiyalarni qo’llash orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirishni ko’paytirish;
- tabiiy resurslar cheklanganligi sharoitida inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ishlab chiqarishni kengaytirishda tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash;
- mamlakatda makro va mikro darajada yashil standartlarga rioya qiladigan, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishda resurslardaan tejab-tergab foydalanish;

Xulosa qilib aytganda, kelajakda iqtisodiyot taraqqiyotini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishda esa muqobil energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Demak, davlatimiz rahbarining yangi qarori asosida bu borada boshlangan ishlar miqyoslari yanada kengayadi, samaradorligi esa ortaveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g’risidagi PQ-4477-son Qarori. https://www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi.
2. Навстречу “зеленой” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.
3. Greening the Global Economy. Hardcover- November 13, 2015. – 176 p.
4. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Darslik. A.E. Ergashev va b. – T.: Baktria press, 2016.-296 b.
5. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X, “Yashil” iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari. Ilmiy elektron jurnal. XXI asr: fan va ta’lim masalalari. 2017 y.
6. Jo‘rayev T.T., Jumanov D “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari” nomli ilmiy maqola. Manba: “Jahonda barqaror

iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.-T.: ”Universitet”. 2018. 239 b. -20 b.

7. Бобаназарова, Ж. Х., & Салохитдинов, Ш. Ф. Ў. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 5), 303-306.

8. Салохитдинов, Ш. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР. *Research and implementation*.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek